



AYRIM XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA YUZLASHTIRISH
JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH VA TEXNOLOGIYALASHTIRISH
TAJRIBASI

Po'latov Og'abek Ne'matovich

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura 1-bosqich talabasi

1. Kirish: Raqamli texnologiyalarning jadal taraqqiyoti dunyoning deyarli barcha davlatlarida jinoyat protsessi institutlarining tubdan qayta ko'rib chiqilishga majbur qilmoqda. Tergov harakatlarini, shu jumladan yuzlashtirishni masofaviy formatda o'tkazish, videokonferensaloqa tizimlaridan foydalanish, natijalarni raqamli shaklda qayd etish va saqlash masalalari ko'plab davlatlar qonunchiligida turli darajada tartibga solingan. Shu bilan birga, mazkur sohadagi yondashuvlar bir-biridan jiddiy farq qiladi, chunki har bir davlatning o'ziga xos konstitutsiyaviy an'analari, sud pretsedentlari va texnologik rivojlanish darajasi mavjud. Ushbu maqola xorijiy mamlakatlarning yuzlashtirish jarayonini raqamlashtirish borasidagi ilg'or tajribasini o'rganish va O'zbekiston amaliyotida qo'llash mumkin bo'lgan xulosalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

2. Tadqiqot natijalari. Buyuk Britaniya yuzlashtirish va shaxsni tanib olish jarayonlarini raqamlashtirishda dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. **VIPER (Video Identification Parade Electronic Recording)** – West Yorkshire politsiyasi tomonidan 1996 yilda yaratilgan va Ichki ishlar vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan ushbu raqamli tizim, an'anaviy jonli identifikatsiya qilish tartiboti o'rniga, oldindan yozib olingan video tasvirlar kutubxonasidan foydalanadi. Tizimda 50 000 dan ortiq shaxsning video lavhalari mavjud bo'lib, politsiya xodimlariga virtual identifikatsiya qilishni bir necha daqiqada tuzish imkonini beradi.¹ An'anaviy identifikatsiya qilish uchun kamida 800 funt sterling va 10 haftagacha vaqt kerak bo'lsa, VIPER orqali bu xarajat 150 funt sterlinggacha kamayadi. IP-ga asoslangan bu tizim hozirda Buyuk Britaniyaning 30 dan ortiq politsiya kuchlari tomonidan qo'llanilmoqda. Shuningdek, **Criminal Justice Act 2003** ning 51-moddasiga asosan, sud "jonli audio yoki video aloqa" (live link) orqali guvohning jinoyat protsessida masofadan ishtirok etishiga ruxsat berishi yoki majbur qilishi mumkin.² Bunday maxsus chora-tadbirlar, ayniqsa, guvohni himoya qilish va sud jarayonini tezlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

AQSHda jinoyat protsessida texnologiyalardan foydalanish masalasi, asosan, Konstitutsiyadagi Oltinchi tuzatish bilan bog'liq. Bu qoida ayblanuvchiga o'ziga qarshi guvohlik berayotgan shaxs bilan yuzma-yuz uchrashish va uni so'roq qilish huquqini beradi. Shu sababli, sud jarayonlarini onlayn yoki virtual tarzda o'tkazish masalasi doim bahsli bo'lib

¹ Video Identification Parade Electronic Recording. (n.d.). DBpedia.
URL:https://dbpedia.org/page/Video_Identification_Parade_Electronic_Recording

² Live Links | The Crown Prosecution Service. (n.d.). <https://www.cps.gov.uk/prosecution-guidance/live-links>



kelmoqda. Pandemiya davrida sudlar masofadan turib o‘tkazilgan bo‘lsada, ayrim mutaxassislar bunday tartib ayblanuvchining konstitutsiyaviy huquqlarini to‘liq ta‘minlamaydi, deb hisoblaydi. Yana bir muhim masala sun‘iy intellekt orqali olingan dalillar. Masalan, agar biror dastur jinoyat joyida ayblanuvchini aniqlasa, uni sudda qanday tekshirish kerakligi savol tug‘diradi. Chunki ayblanuvchi odatda guvohni so‘roq qilish huquqiga ega, lekin bu yerda guvoh inson emas, balki tizim bo‘ladi. Shu sababli, ayrim olimlar, xususan professor R. Coleman, “insoniy yuzlashtirish” g‘oyasini ilgari suradi. Unga ko‘ra, sudda texnologiya emas, balki uning natijalari uchun javob beradigan inson guvoh bo‘lishi kerak. Faqat shunda ayblanuvchining yuzma-yuz so‘roq qilish huquqi to‘liq ta‘minlanadi.

Germaniya Federativ Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi (Strafprozeßordnung – StPO) 58-moddasining 2-qismi dastlabki tergovda guvohlarni o‘zaro yoki ayblanuvchi bilan yuzlashtirishga, agar bu keyingi ish yuritish uchun zarur bo‘lsa, ruxsat beradi. Videotexnologiyalar sohasida Germaniya StPOning 247a va 255a moddalariga asoslanib, videokonferensaloqa orqali guvoh so‘roq qilishni tartibga soladi. 2024 yilda qabul qilingan “Fuqarolik odil sudlovida va maxsus sudlarda videokonferensaloqa texnologiyasidan foydalanishni kengaytirish to‘g‘risida”gi qonun sudlarga o‘z tashabbusi bilan guvohlarni videokonferensaloqa orqali so‘roq qilish huquqini berdi va bu jarayonni yanada soddalashtirdi. Nemis doktrinasida ushbu texnologiyalarning Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa konvensiyasining 6-moddasida kafolatlangan adolatli sud muhokamasi huquqi bilan muvofiqligi jiddiy tahlil qilinmoqda.³

3. Xulosa. Xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuzlashtirish jarayonini raqamlashtirish va texnologiyalashtirish jinoyat odil sudlovining samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, guvohlar va jabrlanuvchilarni himoya qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq, bu jarayon bir qator jiddiy huquqiy muammolarni, xususan, yuzlashtirish, himoya huquqi va texnologik dalillarning ishonchliligi kabi masalalarni keltirib chiqaradi. O‘zbekiston Respublikasi uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Brinchidan, JPKning yuzlashtirishga oid moddalariga videokonferensaloqa, raqamli dalillar va sun‘iy intellektdan foydalanishning aniq protsessual mexanizmlarini aks ettiruvchi qo‘shimcha normalar kiritish.

Ikkinchidan, Buyuk Britaniyaning VIPER tizimiga o‘xshash milliy raqamli platforma yaratish. Yuridik shaxslarni tanitib olish uchun markazlashtirilgan va xavfsiz raqamli video-kutubxona tizimini yaratish. Bu tanitib olish jarayonining xolisligi va tezkorligini oshiradi.

³ Schmid, F. (2019). Zur rechtlichen Bewertung der audiovisuellen Übertragung von Zeugenaussagen im Strafverfahren (insbesondere der Hauptverhandlung) de lege lata (und de lege ferenda). *University Library Heidelberg*, 2, 250–280. <https://doi.org/10.11588/srzwo.2016.2.67575>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Uchinchidan, 2019 yilgi Qonunda belgilangan texnik talablarni muntazam yangilab borish va kengaytirish, shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi yuz tanish tizimlarini qo'llashning yagona standartlarini ishlab chiqish.

To'rtinchidan, tergovchilar, prokurorlar va sudyalarni uchun raqamli texnologiyalarni qo'llash, raqamli dalillarni to'plash, saqlash va baholash bo'yicha muntazam treninglar tashkil etish.

Beshinchidan, Ilg'or xorijiy tajribani, ayniqsa, Yaponiya va Germaniya kabi konfrontatsiya huquqiga alohida e'tibor beradigan davlatlar bilan tajriba almashish dasturlari orqali o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 22.09.1994 y. (o'zgartirishlar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.08.1997 y. 12-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining 23.05.2019 yildagi O'RQ-542-son Qonuni.
4. Criminal Justice Act 2003 (UK).
5. The Criminal Procedure Rules 2020 (UK).
6. German Code of Criminal Procedure (StPO), Sections 58, 247a, 255a.
7. French Code of Criminal Procedure, Article 706-71.
8. Japanese Code of Criminal Procedure, Articles 157-4 to 157-6.
9. South Korean Criminal Procedure Act, as amended in 2021.
10. Guidelines on improving the mechanism for reviewing the identities of suspects and defendants in criminal cases, Supreme People's Court of China, 2025.
11. Viper – Video Identification Parade Electronic Recording, West Yorkshire Police, UK.
12. Coleman R., "Human Confrontation", Georgetown University Law Center, 2025.